





The image shows a laptop screen with a dashboard. The dashboard has a dark blue sidebar on the left with a user profile and navigation menu. The main area displays several key performance indicators (KPIs) in a grid: 'Total Users' (2500), 'Avg. Session Time' (1.51 Sec), 'Total Visits' (2,500), 'Total Pages' (4,567), 'Total Collections' (2,315), and 'Total Connections' (7,325). Below these are several line and bar charts showing trends over time. The text '2021- yil yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi' is overlaid on the image in white.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi – milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 649,7** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 078,4** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,3** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)




2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning sentabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **161,8** mlrd. so'mga o'sdi va **603,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **115,9** mlrd. so'mga pasaygan va **490,4** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning avgust oyiga nisbatan joriy yilning sentabr oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **32,6** mlrd. so'mga o'sdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning avgust oyiga nisbatan 2020- yil sentabr oyida xizmatlar hajmi **63,3** mlrd. so'mga o'sgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	4649,7	120,3
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	209,6	116,8
Moliyaviy xizmatlar	1 195,0	128,3
Transport xizmatlari	741,9	112,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	729,1	112,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	116,9	107,3
Savdo xizmatlari	1 467,7	115,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	99,1	110,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	198,4	155,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	88,7	146,6
Ijara xizmatlari	100,9	120,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	112,4	116,4
Shaxsiy xizmatlar	127,1	111,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	63,5	117,7
Boshqa xizmatlar	128,5	126,4

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da

Nisbatan past ko'rsatkich

Nisbatan yuqori ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **31,6 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar moliyaviy (**25,7 %**), transport xizmatlar (**15,9 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**4,5 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,4 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **31,7 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,4 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatda texnik jihozlanish darajasining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida yuqori o'sish ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**55,3 %**), sog'liqni saqlash (**46,6 %**), moliyaviy xizmatlarida (**28,3 %**), boshqa xizmatlar (**26,4 %**), ijara xizmatlar (**20,7 %**), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**17,7 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**16,8 %**), shuningdek, kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari xizmatlarida (**16,4 %**) qayd etildi.


Buning sababi, korxona va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatilishi bilan bog'liq.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlari (**7,3 %**) sohasida qayd etildi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **134,6 %**.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarida keskin pasayish kuzatilgan – **28,9 %**.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar




Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-sentabr

2021- y. yanvar-sentabr



Yo'lovchi tashish



Yuk tashish


2021- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashish xizmatlarining ulushi **58,3 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida yuk tashish xizmatlarining ulushi **57,9 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar- sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Umumiy avtomobil transporti xizmatlari hajmida hududlarning ulushi, % da (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **729,1** mlrd. so'mga teng bo'ldi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlar hajmi **12,1** % ga oshdi.


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ulush ko'rsatkichlari Sharof Rashidov (**33,5 %**), Jizzax shahri (**15,4 %**), Zomin (**10,8 %**), Baxmal (**9,8 %**), G'allaorol (**8,4 %**), Zarbdor (**5,0 %**) va Paxtakor (**3,6 %**) tumaniga to'g'ri keldi.

Eng past ulush ko'rsatkichi Arnasoy viloyatida qayd etildi (**0,7 %**).

Avtomobil transporti xizmatlarining o'sish sur'ati, % da (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida avtotransport xizmatlarining yuqori o'sishiga Jizzax sh. (**117,6 %**), Sharof Rashidov (**16,0 %**) va Do'stlik (**13,7%**) tumanlarida, shuningdek, Paxtakor (**12,3 %**) erishildi.

Ushbu sohadagi xizmatlarida keskin pasayish Arnasoy tumanida kuzatilgan – **36,5 %**.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **31,6 %** ni tashkil etib, bu esa **1 467,7** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **1 130,8** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **31,7 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



2020- y. yanvar-sentabr




2021- y. yanvar-sentabr

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i **81,5%** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi 80,2 % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)

2021- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 195,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **916,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **25,7** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **25,7** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **278,2** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **28,3** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning o'sish sur'ati **134,6** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr


Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **95,1 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan sug'urta xizmatlarining ulushi umumiy hajmning **3,6 %** ini tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, yordamchi xizmatlarning ulushi **1,3 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **93,7 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,3 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,0 %**.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari


(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)

O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **209,6** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **116,8 %** ni tashkil etgan.

Hajmning o'sishi



Xizmatlar hajmi

Jami hajmdagi ulushi

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmat turi hajmi **177,2** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **4,9 %** iga teng bo'lgan. O'sish sur'ati esa **114,7 %** ni tashkil etgan.


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **198,4 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,3 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-sentabrga nisbatan o'sish sur'ati **155,3 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr


Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **23,2** mlrd. so'mga ortgan.


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2020- y. yanvar-sentabr



2021- y. yanvar-sentabr



Yashash bo'yicha xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **89,6** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **91,9** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
Yanvar-sentabr



88,7
mlrd. so'm

1,9 %

146,6 %

Xizmatlar
hajmi

Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi

O'sish
sur'ati

2020- y.
Yanvar-sentabr

53,0
mlrd. so'm


1,5 %

89,0 %

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



2021-yilning yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasida xizmatlarning yuqori o'sishi Zomin tumanida **220,4** % ni tashkil etdi.

Nisbatan xizmatlarida keskin pasayish kuzatilgan Mirzacho'l tumanida – **48,5** %.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Jizzax viloyati	4 649,7	120,3	102,9
Jizzax shahri	1 872,6	122,2	103,1
tumanlar:			
Arnasoy	108,7	113,5	100,0
Baxmal	284,1	118,6	100,1
G'allaorol	379,7	120,6	98,0
Sharof Rashidov	594,9	119,9	106,7
Do'stlik	175,4	120,8	114,3
Zomin	405,6	123,7	101,9
Zarbdor	182,6	116,8	98,2
Zafarobod	102,8	117,2	101,5
Mirzacho'l	130,6	113,7	107,2
Paxtakor	169,2	116,8	102,5
Forish	190,4	115,8	98,3
Yangiobod	53,1	115,2	91,8


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Jizzax shahri tashkil etdi – **40,3 %** (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida – **42,0 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Yangiobod tumanida – **1,2 %** (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida – **0,8 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmning
o'sishi



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 268,3** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **117,7** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 564,5** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,7** % da qayd etilgan.

117,7 %

O'sish sur'ati



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

13 570
birlik

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

1 973
birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

117,0 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi


57,5 %

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **57,5 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **16,9 %**, sanoat ulushi **16,4 %** ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **9,2** ga to'g'ri keldi.

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning, ulushi **57,4 %** ni sanoat **16,5 %**ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **16,3 %** ni, qurilish **9,8%** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- ortabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**43,1** %).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **10,8** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **4,8** % ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **2,4** % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,1** % ga teng bo'ldi.

Savdo – 43,1

Boshqa turdagi xizmatlar – 36,8

Yashash va ovqatlanish – 10,8

Tashish va saqlash – 4,8

Sog'liqni saqlash – 2,4

Axborot va aloqa – 2,1


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **61,2 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi **76,1 %** ga to'g'ri keldi.

